



ILMIY DISKURSDA PERSUAZIVLIKNING LINGVOPRAGMATIK JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18616453>

Qodirova Naziraxon Murodbek qizi.

Andijon davlat chet tillari instituti

Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti

kafedrası o'qituvchisi

<https://orsid.org/0009-0004-5676-5675>

naziraqodirova96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy diskurs doirasida persuzivlik hodisasining lingvopragmatik xususiyatlari fransuz va o'zbek ilmiy matnlari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Ilmiy nutqda persuzivlikning yashirin ifodalanish mexanizmlari, pragmatik strategiyalari va ularni yuzaga chiqaruvchi til vositalari aniqlanadi. Tadqiqot jarayonida modal birliklar, baholovchi leksika, argumentativ bog'lovchilar hamda intertekstual murojaatlarning ilmiy matndagi persuziv funksiyasi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy yozuv nazariyasi, diskurs tahlili va akademik tarjima amaliyoti uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ilmiy diskurs, persuzivlik, lingvopragmatika, qiyosiy tahlil, fransuz tili, o'zbek tili, muallif pozitsiyasi.

Abstract: This article investigates the linguo-pragmatic aspects of persuasion in scientific discourse through a comparative analysis of French and Uzbek academic texts. The study focuses on implicit persuasive strategies, pragmatic mechanisms, and linguistic devices used to influence the reader in scientific writing. Modal markers, evaluative lexis, argumentative connectors, and intertextual references are analyzed as key elements of persuasion. The findings contribute to academic discourse studies, scientific writing theory, and translation research.

Key words: scientific discourse, persuasion, linguo-pragmatics, comparative analysis, French, Uzbek, authorial stance.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвопрагматические аспекты персуазивности в научном дискурсе на материале сравнительного анализа французских и узбекских научных текстов. Выявляются скрытые механизмы персуазивного воздействия, прагматические стратегии и языковые средства их реализации. Анализ модальных конструкций, оценочной лексики, аргументативных связей и интертекстуальных ссылок позволяет определить особенности научной



аргументации в разных языках. Результаты исследования имеют значение для теории научного письма, анализа дискурса и переводоведения.

Ключевые слова: научный дискурс, персуазивность, лингвопрагматика, сравнительный анализ, французский язык, узбекский язык.

Ilmiy diskurs uzoq vaqt davomida obyektiv, betaraf va shaxsiy munosabatlardan xoli nutq turi sifatida talqin etib kelindi. Biroq zamonaviy pragmalingvistika va diskurs tahlili doirasidagi tadqiqotlar ilmiy matnlar ham muayyan kommunikativ va pragmatik maqsadlarni amalga oshirishini ko'rsatmoqda. Xususan, ilmiy muallif o'z tadqiqotining yangiligi, dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini o'quvchiga ishonchli tarzda yetkazishga intiladi.

Shu nuqtayi nazardan, ilmiy diskursda persuzivlik muallif va adresat o'rtasidagi mantiqiy va kognitiv o'zaro ta'sir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada persuzivlikning lingvopragmatik mexanizmlari fransuz va o'zbek ilmiy matnlari asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

Persuzivlik tushunchasining lingvopragmatik asoslari

Persuzivlik tilshunoslikda adresatning bilimlari, baholari va xulosalariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan nutqiy faoliyat sifatida izohlanadi. Lingvopragmatika doirasida esa persuzivlik muallifning pragmatik niyati va til vositalari o'rtasidagi munosabat orqali talqin qilinadi.

Ilmiy diskursda persuzivlik quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: ochiq buyruq va emotsional ta'sirning yo'qligi; mantiqiy argumentatsiyaning

ustuvorligi; ilmiy ehtiyotkorlikni ifodalovchi modal birliklarning faol qo'llanilishi.

Ilmiy diskursda muallif pozitsiyasi va persuzivlik

Ilmiy matnda muallif pozitsiyasi to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita ifodalanadi. Bu holat persuzivlikning yashirin xarakterini ta'minlaydi.

O'zbek ilmiy matnlaridan misol:

“Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuv til tizimining ichki qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi”.

Fransuz ilmiy matnlaridan misol:

«Les résultats obtenus montrent que cette approche permet une analyse plus cohérente du système linguistique».

Har ikki tilda “shuni ko'rsatadiki / montrent que” konstruksiyalari empirik dalilga tayanishni bildiradi va persuziv funksiyani bajaradi.

Modal birliklar orqali persuzivlik

Modal birliklar ilmiy diskursda muallifning ishonch darajasini belgilaydi.

O'zbek tilida:

“Mazkur hodisa til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lishi mumkin”.

Fransuz tilida: «Ce phénomène peut être expliqué par l'évolution du langage». mumkin / peut birliklari kategorik hukmdan qochish orqali ilmiy ehtiyotkorlikni va yashirin persuzivlikni ta'minlaydi.



Baholovchi leksika va ilmiy persuazivlik

Ilmiy matnda baholash ochiq emotsional bo'lmaydi, balki terminologik aniqlik bilan ifodalanadi.

O'zbek tilida: "Mazkur masala tilshunoslik uchun muhim nazariy ahamiyatga ega".

Fransuz tilida: «Cette question revêt une importance théorique considérable pour la linguistique» muhim/importance considérable birliklari muallif nuqtayi nazarini mustahkamlovchi persuaziv vosita hisoblanadi.

Argumentativ bog'lovchilar va mantiqiy persuaziya

Ilmiy diskursda persuazivlikning eng muhim mexanizmi mantiqiy bog'lanishlardir.

O'zbek tilida:

"Avvalgi tadqiqotlarda mazkur masala yetarlicha yoritilmagan, shu sababli ushbu tadqiqot dolzarb hisoblanadi".

Fransuz tilida: «Les recherches antérieures n'ont pas suffisamment abordé ce problème, c'est pourquoi la présente étude se révèle pertinente».

Bog'lovchilar (shu sababli/c'est pourquoi) sabab-oqibat munosabatini mustahkamlab, o'quvchini muallif xulosasiga olib keladi.

Intertekstual murojaatlar va ilmiy ishonchlilik

Ilmiy persuazivlikda autoritet manbalarga tayanish muhim o'rin tutadi.

Misol: "Van Deykning ta'kidlashicha, diskurs ijtimoiy va kognitiv omillar bilan belgilanadi". «Comme le souligne Van Dijk, le discours est déterminé par des facteurs sociaux et cognitifs». Bu turdagi murojaatlar ilmiy fikrning legitimligini oshiradi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki: fransuz ilmiy diskursida modal birliklar ko'proq grammatik vositalar orqali ifodalanadi; o'zbek ilmiy diskursida esa leksik-sintaktik birliklar ustunlik qiladi; har ikki tilda persuazivlik asosan argumentatsiya va mantiqiy struktura orqali amalga oshadi.

Mazkur maqolada ilmiy diskursda persuazivlikning lingvopragmatik tabiatini ochib beradi. Fransuz va o'zbek ilmiy matnlarining qiyosiy tahlili persuazivlik universal hodisa ekanini, biroq uning ifodalanish vositalari til tizimiga bog'liq holda farqlanishini ko'rsatdi. Modal birliklar, baholovchi leksika, argumentativ bog'lovchilar va intertekstual murojaatlar ilmiy persuazivlikning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Ushbu natijalar ilmiy yozuv madaniyati va akademik tarjima uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Анарбоева, И. О. (2025). Гендерные принципы номинативных единиц (на примере французского и узбекского языков). FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities, 13(2), 136-139.
2. Van Dijk T. A. Discourse and Power. – London: Palgrave Macmillan, 2008.
3. Hyland K. Persuasion in Academic Discourse. – Journal of Pragmatics, 1998.
4. Karimov B. A. Ilmiy diskurs pragmatikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Oripovna, A. I. (2025). Nominativ birliklarning kommunikativ-pragmatik tamoyillari (fransuz va o'zbek tillari misolida). American journal of education and learning, 3(4), 265-268.
6. Oripovna, A. I. (2025). Enseigner le theme de l'ecologie lors de l'etude du français. sustainability of education, socio-economic science theory, 3(29), 66-67.